Aholi turmush darajasi baholash bo'yicha dasturiy ta'minot ishlab chiqishda horij tajribasini o'rganish .....	844
<b>Tursunov Farxod Baxodir o'g'li</b>	
Mintaqa aholi turmush farovonligiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifini ishlab chiqish.....	848
<b>Xodjanijazov Shohruh Yuldashovich</b>	
Xususiy oliy ta'lim muassasalari menejmentining nazariy jihatlarini va o'ziga xos xususiyatlari.....	856
<b>Karimov Ulug'bek Usmonovich</b>	



Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi .....	861
<b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich</b>	
Повышение инвестиционной привлекательности – важное условие повышения конкурентоспособности предприятий.....	865
<b>Каримова Дилафруз Садирдин кизи</b>	
Yevropa ittifoqi davlatlari tijorat banklarining soliq to'lovlarini amalga oshirish tartibi .....	870
<b>Komolov Odiljon Sayfidinovich</b>	
Boshqaruvda innovatsiyalarni hisobga olgan holda agrokorxonalarni davlat tomonidan rag'batlantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	878
<b>Shaniyazova Zamira</b>	
Практические аспекты применения статистических методов контроля качества на предприятиях.....	883
<b>Усманов Илхом Ачилович, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning yangi paradigmalarini shakllantirish: nazariy asoslar va amaliy talqinlar.....	891
<b>Alimova Guzal Abduxakimovna</b>	
Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining nazariy va metodologik tahlili .....	895
<b>Qo'ziyoyev Boxodir Azzamboy o'g'li</b>	
Kutubxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes-modellarni ishlab chiqish.....	900
<b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubi-yatini takomillashtirish .....	905
<b>X.A.Raximov</b>	
Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumot bazasida shakllanishi.....	910
<b>Ergashev Uyg'un Jabborovich</b>	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori .....	916
<b>Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich</b>	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
<b>Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi</b>	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
<b>Xalilova Aziza Rustamovna</b>	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
<b>Раматов Зафарбек Жуманиязович</b>	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
<b>Mannapova Shaxnoza Elshodovna</b>	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnomaga yondashuvi .....	947
<b>Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li</b>	
Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari .....	962
<b>Vaxrombek Bobojonov</b>	



# FARMASEVTIKA KOMPANIYALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI

**Baxrombek Bobojonov**

PhD, TDIU "Marketing" kafedrası dotsenti

<https://orcid.org/0000-0003-0144-9179>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada farmatsevtika kompaniyalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Farmatsevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda yetakchilik marketing strategiyasi, ogohlantiruvchi marketing strategiyasi, "yetakchidan keyingi" marketing strategiyasi va maxsus marketing strategiyasidan foydalanish yo'nalishlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqobat, raqobatbardoshlik, yetakchilik marketing strategiyasi, ogohlantiruvchi marketing strategiyasi, "yetakchidan keyingi" marketing strategiyasi, maxsus marketing strategiyasi.

**Abstract:** This article analyzes the factors affecting the competitiveness of pharmaceutical companies. The directions for using leadership marketing strategies, warning marketing strategies, "Follow-the-leader" marketing strategies, and special marketing strategies to increase the competitiveness of pharmaceutical companies are presented.

**Key words:** Competition, competitiveness, leadership marketing strategy, warning marketing strategy, "Follow-the-leader" marketing strategy, special marketing strategy.

**Аннотация:** В статье анализируются факторы, влияющие на конкурентоспособность фармацевтических компаний. Представлены направления использования стратегий лидерского маркетинга, стратегий предупреждающего маркетинга, стратегий маркетинга «Следуй за лидером» и специальных маркетинговых стратегий для повышения конкурентоспособности фармацевтических компаний.

**Ключевые слова:** Конкуренция, конкурентоспособность, стратегия лидерского маркетинга, стратегия предупреждающего маркетинга, стратегия маркетинга «Следуй за лидером», специальная маркетинговая стратегия.

## KIRISH

Dunyoda marketing sohasidagi tadqiqotlar asosan tayyor mahsulotlarni sotish bo'yicha zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqishga, yangi mahsulot brendlarini yaratish va ularni targ'ib qilishga qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda so'nggi yillarda marketing tadqiqotlari iste'molchilar bilan elektron so'rovnomalar o'tkazish, ularning farmatsevtika mahsulotlari sifatiga bo'lgan munosabatini o'rganish, farmatsevtika mahsulotlarining elektron savdosini rivojlantirish va iste'molchilar uchun qulay platformalarni yaratishga yo'naltirilmoqda.

O'zbekiston farmatsevtika bozorida mahalliy korxonalarining marketing strategiyasini ishlab chiqish – iste'molchilarni segmentlash, farmatsevtika vositalarini to'g'ridan-to'g'ri sotishni samarali tashkil etish va har bir iste'mol segmenti uchun marketingning ta'sirchan, innovatsion vositalarini yaratishni talab qiladi.

Farmatsevtika mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri sotishni tashkil etishda iste'molchilarning xulq-atvori omillarini bilish, shuningdek, ushbu omillarning o'zgarishiga moslashish qobiliyatiga ega bo'lish katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi



O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son'li, shuningdek, 2022-yil 21-yanvardagi "2022 – 2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son'li Farmonlarida "Aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish" [1] vazifalari belgilab berilgan.

Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun farmatsevtika bozorining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mavjud ishlanmalardan to'liq foydalanish, dinamik rivojlanayotgan farmatsevtika bozorida iste'molchilarning xulq-atvori omillarini – ularning dinamikasi va ularga ta'sir etuvchi omillarni prognoz qilish, shuningdek, ushbu omillarni aniqlash muammolarini hal qilish, farmatsevtika mahsulotlari savdosini samarali tashkil etishda iste'molchilar xulq-atvorini aniqlash va baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlarga ustuvor e'tibor berilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, farmatsevtika kompaniyalarining raqobat muhitida ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha marketing strategiyalarini aniqlash masalasi dolzarb hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketingda tovar va xizmatlar bozorida raqobat ko'proq o'rganiladi. Mamlakat, viloyat, shahar va tumanlar, kompaniyalarning o'z bozor faoliyati mavjud bo'lib, ular o'rtasida, albatta, raqobat mavjud.

Raqobat – mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (kompaniyalar) o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va foydali narxda sotish, umuman olganda, iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurash [2] bo'lib, bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bir xil tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida bozorni egallash va unda faol harakatni ta'minlash uchun olib boriladigan kurash raqobat hisoblanadi.

Raqobat va uning nazariyasi dunyodagi ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilib, uning ilmiy-uslubiy asoslari tobora takomillashmoqda. Nazariy jihatdan Adam Smit "raqobat – butun jamiyatga naf keltiruvchi faoliyat" [3] ekanligini, Fransua Kene esa "tabiiy tartib" konsepsiyasini ilgari surib, o'z davrida shakllanayotgan kapitalizm g'oyasini ma'qullaganini ko'rish mumkin. U bunday sharoitda iqtisodiy rivojlanish "erkin raqobat"ga asoslanishini, bozor narxlarining stixiyali o'zgarishi tabiiy holat ekanini, davlat esa bu jarayonga aralashmasligi lozimligini ta'kidlagan.

Fikrimizcha, M. Porterning raqobatning besh kuchi, Yu. B. Rubinning korxonalar raqobatbardoshligi nazariyalari yuqori darajadagi shakllangan bozor iqtisodiyotiga xos yondashuvlardir. M. Porter iqtisodiy "klaster" tushunchasining targ'ibotchisi sifatida mashhur bo'lib, u korxonaning raqobatbardoshligi iqtisodiy muhit bilan chambarchas bog'liqligini asoslab bergan. Iqtisodiy muhit esa, o'z navbatida, asosiy sharoitlar (umumiy resurslar, talab) va klasterdagi raqobat bilan belgilanadi.

M. Porter raqobatbardoshlikni tahlil qilishning tan olingan usulini ishlab chiqib, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini arzon mehnat kabi "birlamchi omillar"dan tortib, innovatsiyaga asoslangan raqobat va boylik asosidagi raqobatgacha bo'lgan bosqichlar asosida izohlagan. Uning fikricha, "mamlakatda raqobat qanchalik rivojlangan va xaridorlarning talablari yuqori bo'lsa, shu mamlakat kompaniyalarining xalqaro bozorda muvaffaqiyatga erishish ehtimoli ham shunchalik yuqori bo'ladi. Aksincha, milliy bozordagi raqobatning kuchsizlanishi, qoidaga ko'ra, raqobat ustunligining zaiflashuviga olib keladi" [4].

Yu. B. Rubin esa kompaniyalar raqobatbardoshligi nazariyasiga "biznesning tizimlashgan birligi" sifatida qaraydi. U biznesda raqobatning tabiati, ustunliklari va ularni shakllantirish omillarini nazariy jihatdan ishlab chiqqan. Uning fikricha, "raqobat – bu biznesni boshqarishning asosiy kuchidir va u tabiiy biologik jarayon kabi doimiy rivojlanish harakatida bo'ladi" [5]. Uning qarashlarida bozor munosabatlarining rivojlanishini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida aynan raqobat ko'rsatiladi.

"Raqobatbardoshlik" tushunchasi iqtisodiy fanlar, xususan marketingning asosiy kategoriyasi hisoblanadi. U bozordagi o'xshash tovarlarga nisbatan tovarning qiymati, iste'mol qiymati va boshqa bir qator omillar asosida aniqlanadi hamda har bir bozor sharoitida nisbiy xususiyat kasb etadi. Raqobatbardoshlik ishlab chiqaruvchining bozordagi mavqei, tovarlarining sotilish ulushini oshirish va doimiy harakatda bo'lishini ifodalovchi iqtisodiy mexanizmdir [6]. Shu bilan birga, raqobat ijtimoiy jihatdan hayot sifati darajasini oshiruvchi, aholining ijtimoiy himoya tizimini shakllantiruvchi va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi kuchdir.

Raqobat va raqobatbardoshlikni izohlashda respublika olimlarining fikrlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Masalan, M. Boltabayev o'z tadqiqotlarida "raqobatbardoshlik – bu muayyan bozor sharoitida o'xshash tovarlarga nisbatan raqobatga bardosh bera olish qobiliyati" ekanligini ta'kidlagan. Sh. Nazarov esa raqobatbardoshlikni "mintaqaning o'z tabiiy-iqtisodiy salohiyati, raqobat ustunliklari va institutsional

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5834287>



imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali aholining turmush darajasi va sifatining barqaror o'sib borishini ta'minlovchi rivojlanish darajasi" [7] sifatida tavsiflaydi.

Tovar raqobatbardoshligi deganda – tovarning o'xshash mahsulotlarga nisbatan iste'molchini jalb qilish qobiliyati tushuniladi. Farmatsevtika sanoatida raqobat omillarining xususiyatlari, ta'sir darajasi va xarakteri boshqa sohalardan farq qilsa-da, bu omillar marketing faoliyatining samaradorligiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ularni tadqiq etishda, avvalo, tizimli tasniflash zarur.

Farmatsevtika kompaniyalarining raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda M. Porter taklif etgan "raqobat kuchi va xarakterini o'zgartiruvchi asosiy omillar"ga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Bozor xususiyatlaridan kelib chiqib, kengaytirilgan raqobat konsepsiyasi doirasida farmatsevtika kompaniyalari marketing strategiyalari quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

Kam investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish quvvatlarining past bo'lishi, malakasiz kadrlar mavjudligi, innovatsion mahsulotlarsiz bozorni vaqtinchalik egallab turish imkoniyati, ishlab chiqarish va sotish shakllarining yetarli emasligi;

Eksport va import cheklolvarining mavjud emasligi, milliy standartlar bo'yicha qat'iy nazoratning sustligi, xomashyo narxi va logistika xarajatlarining yuqoriligi, ta'minotchilar sonining kamligi;

Mahsulotga bo'lgan talabning yuqori dinamikali xususiyatga ega bo'lishi, assortimentning kengligi, bozorning yetarlicha differensiallanmaganligi, individuallik omillarining kuchlliligi;

O'rinbosar tovarlarning kirib kelishiga to'sqinlik qilinmasligi, mahsulot sifatining doimiy oshirilishi zarurati yangi raqobatchilar kirib kelishini cheklay olmasligi;

Raqobatchilar sonining ko'pligi, bozor o'sish sur'atlarining yuqoriligi, kompaniyalar tarmoqdan chiqish imkoniyatlarining cheklangani, ishlab chiqarish quvvatlarini tez kengaytirish imkonini bo'lmagan, iste'mol xususiyatlarining barqarorligi, xarajatlarning o'zgaruvchanligi pastligi, samarali marketing strategiyalarining sust o'zlashtirilishi.

Ushbu omillar kompaniyaning raqobat ustunligini shakllantirishda moslashuvchanlikni talab etadi. Ularning paydo bo'lishi esa kompaniya uchun ichki raqobat afzalliklarini yuzaga keltiradi. Kuchli raqobat muhiti kompaniya faoliyatining samaradorligini oshiradi, yangi bozorlarda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi va raqobat ustunligini mustahkamlaydi.

Farmatsevtika kompaniyalariga marketing strategiyalarini joriy etish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ham ko'plab iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy qarashlarini bildirganlar. Jumladan:

Marketing strategiyalari bo'yicha eng katta natijalar Maykl Porter tomonidan olingan. M.Porter aytishicha, har qanday sohada 5 ta omil raqobat me'yorlarini aniqlab, marketing strategiyasini tanlashga imkon beradi[8].

1. Kirish to'siqlari. Tashkilot yoki mahsulotning iste'molchilarga notanishligi, kerakli kapital hajmi kabi omillar yangi raqobatchilar uchun sohaga kirish qanchalik oson yoki yengilligini aniqlab beradi;

2. O'zgarishlar xavfi. Narxlar o'zgaruvchanligi, iste'molchilar sadoqati kabi omillar iste'molchilarning raqobatchilarga o'tib ketish ehtimollik darajasini aniqlab beradi;

3. Iste'molchilar kuchi. O'rnini bosa oladigan boshqa mahsulotlar mavjudligi kabi omillar iste'molchilarning sohaga bo'lgan ta'sir kuchini aniqlab beradi;

4. Ta'minotchilar kuchi. Ta'minotchilarning birdamligi, o'rnini bosa oladigan boshqa ta'minot materiallarining mavjudligi kabi omillar ta'minotchilarning sohada tashkilotlariga ta'sir kuchini aniqlaydi;

5. Raqobat darajasi. Sohaning o'sishi va kompaniya mahsulotlarining o'ziga xosligi sohada faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalar o'rtasidagi raqobat darajasini aniqlab beradi.

Mazkur beshta omil birgalikda kompaniya daromadlilikini bildiradi. Chunki bu omillarning har biri kompaniyalarning narxlar, xarajatlarining tuzilishi va investitsiya shartlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik olim F. Kotler asosiy marketing strategiyalari sifatida portfel strategiyalar, raqobat strategiyalari, funksional strategiyalarni alohida ko'rsatib beradi. Shuningdek, uning fikricha, o'sish strategiyasi va diversifikatsiya strategiyalarini qo'llash ham kompaniyalar faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi[9].

Farmatsevtikadagi past narxlarni taklif qilishga intiladigan kompaniyalar narx-yetakchiligi strategiyasini qo'llaydilar. Bu strategiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun kompaniya mazkur tarmoqda narx yetakchilaridan biri emas, balki yagona eng past narxlarga ega bo'lgan yetakchi bo'lishi lozim.

Farmatsevtika mahsulotlari iste'molchilar tomonidan yuqori qadrlanadigan o'ziga xoslikka ega bo'lishga intilsalar ular farqlanish strategiyasini qo'llashlari lozim. Bunday kompaniyalar raqobatchilardan farqlanish uchun yuqori sifat, g'ayritabiiy xizmatlar, innovatsion ko'rinish yoki texnologik qobiliyat taklif qilishi mumkin. Tanlangan o'ziga xos xususiyatlar raqobatchilarnikidan farqli bo'lib, bu yangi xususiyatlarni qoplash uchun qilingan qo'shimcha xarajatlarga bog'liq ravishda narxlar ham yuqorroq bo'lishi lozim.[10]

Porter yuqoridagi strategiyalardan birini qo'llab raqobat ustivorligiga erishmagan kompaniyalarni o'rtada qotib qolgan kompaniyalar deb ataydi. Bu kompaniyalar uzoq muddatli muvaffaqiyatga erisha olmaydilar.

Sanab o'tilgan omillar farmatsevtika sanoatida yuqori raqobat muhiti shakllanishini va bu jarayonda samarali marketing strategiyalarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda farmasevtika kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalarining ahamiyatini aniqlash maqsadida statistik ma'lumotlar, soha mutaxassislari bilan intervyular va mavjud tahliliy hisobotlar asosida ma'lumotlar to'plandi hamda ularning mazmuniy-tahliliy usulda ekspertiza tahlili o'tkazildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Strategiyani tanlashda kompaniya o'zining kuchli tomonlarini hamda raqobatchilarining kuchsiz jihatlarini inobatga olishi lozim. Kompaniya raqobatchilar bilan keskin raqobatga olib keluvchi strategiyalardan qochishga harakat qilishi kerak. Buning o'rniga, farmatsevtika kompaniyasi o'z kuchini raqobatchilarning zaif tomonlariga qaratishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Farmatsevtika kompaniyalarida quyidagi asosiy marketing strategiyalarini qo'llash tavsiya etiladi. Birinchi strategiya – yetakchilik strategiyasi bo'lib, bu bozor rivojlanishiga eng katta hissa qo'shuvchi kompaniyalar tomonidan qo'llanadi. Yetakchi kompaniyalar bir necha yo'nalishlarda harakat qiladilar. Jumladan, birlamchi talabni kengaytirish strategiyasi yangi iste'molchilarni jalb qilish, mavjud tovarlardan foydalanishni targ'ib qilish va ularning iste'molini oshirishga qaratiladi. Bu yo'nalish intensiv o'sish omillari sifatida baholanadi. Shuningdek, himoya strategiyasi yetakchining bozordagi ulushini saqlab qolishga qaratilgan bo'lib, bu innovatsiyalarni joriy etish, texnologiyalarni takomillashtirish va bozorda faol savdo harakatlarini olib borishni o'z ichiga oladi. Boshlovchi strategiya esa ilgari yuqori samaradorlik ko'rsatgan amaliyotlardan maksimal darajada foydalanishga asoslanadi. Bu strategiya rentabellikni oshirish va bozordagi ulushni kengaytirishga xizmat qiladi. Demarketing strategiyasi esa ayrim segmentlardagi talabni ataylab pasaytirish orqali narxlarni ko'tarish va bozordagi ulushni qisqartirishga qaratilgan strategiyadir.

Keyingi strategiya – ogohlantirish strategiyasi bo'lib, bu bozorda muhim pozitsiyani egallagan kompaniyaning yetakchi kompaniya harakatlariga javoban unga nisbatan raqobatli javob berishiga asoslanadi. Bunday strategiyada kompaniya raqib yetakchining tajovuzkor harakatlariga qarshi javob choralarini ko'radi. Bu yerda ikki muammo mavjud: birinchisi – qaysi yetakchini raqobatchi sifatida tanlash, ikkinchisi esa – unga nisbatan qanday himoya strategiyalarini ishlab chiqish masalasidir.

Yana bir strategiya – “yetakchidan keyingi” strategiyasidir. Bu strategiyani odatda bozorda kichik ulushga ega bo'lgan kompaniyalar qo'llaydi. Ular yetakchi tomonidan qabul qilingan harakatlarga bevosita ergashmasdan, lekin o'z qarorlarini ushbu harakatlar bilan muvofiqlashtirib boradilar. Bunday yondashuv raqobatbardoshlikni saqlab qolish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Maxsus strategiyani tanlagan kompaniyalar esa butun bozorni emas, balki faqat bitta yoki bir nechta segmentni maqsad qilib oladi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi – katta daryoda kichik baliq bo'lish o'rniga, kichik daryoda yirik baliq bo'lishdir. Maxsus strategiya ko'pincha “markazni egallash” strategiyasi bilan uyg'unlashadi va kompaniyaning resurslarini aniq bir yo'nalishga to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Bu esa bozor segmentida mustahkam pozitsiyani egallash uchun muhim ahamiyat kasb etadi [14].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, farmatsevtika mahsulotlarining raqobatbardoshligini marketing strategiyalarini takomillashtirish asosida oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

farmatsevtika mahsulotlarini sotish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlardan samarali foydalanish;

farmatsevtika kompaniyalarida SRM texnologiyalarini keng joriy etish. SRM (inglizcha Supplier Relationship Management) – bu kompaniyalarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan o'zaro hamkorlikni boshqarish tizimi [15];

farmatsevtika kompaniyalarida kross-marketing texnologiyalarini qo'llash. Kross-marketing texnologiyasi bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalish bo'yicha iste'molchilarni jalb qilish imkonini beruvchi va eng katta foyda keltiruvchi marketing yondashuvi hisoblanadi. Bu yondashuvda ikki yoki undan ortiq kompaniya o'z mahsulotlarini ilgari surishda birgalikda harakat qiladi va ularning tovar hamda xizmatlari o'zaro mos, bir-birini to'ldiruvchi bo'ladi;

bozorlarga kirib kelayotgan farmatsevtika mahsulotlari uchun maxsus aksiyalarni tashkil etish orqali yangi tovarlarning ommaviy targ'ibotini kengaytirish;

eksportga yo'naltirilgan farmatsevtika mahsulotlari uchun jahon bozorlariga moslashtirilgan maxsus marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-55-son "2022-2026 yillarda Respublikaning farmasevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni. – www.lex.uz
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 8-ж. – 265 б.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов (книги I–III). / Пер. с англ., вводная статья и комментарии Е.М. Майбурда. – М.: Наука, 1993. – 572 с.
4. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / Пер. с англ. – М.: Альпина Biznes books, 2005. – 454 с.
5. Рубин Ю.Б. Теория и практика предпринимательской конкуренции. Учебник. 4-е изд. – М.: О.О. Маркет ДС, 2004. – 782 с.
6. Шодмонов Ш., Ғофуров У.В. Иқтисодиёт назарияси (дарслик). – Т.: Фан ва технология, 2005. – 784 б.
7. Назаров Ш. Ўзбекистон минтақалари рақобатдошлигини оширишнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореф. – Т.: ТДИУ, 2016. – 14 б.
8. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов. Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2005.
9. Kotler Ph. Marketing essentials. – Prentice Hall, United States, 2019.
10. Smit B. Brend-terapiya. 15 metodov dlya sozdaniya strategii brenda v industrii farmasevtiki i meditsinskix texnologiy. – Litres, 2018.
11. Dogramatzis D. Pharmaceutical marketing: a practical guide. – CRC Press, 2015.
12. Xomidov S. Farmasevtika sanoatida innovatsion mahsulotga bo'lgan talab dinamikasini modellashtirish // Arxiv nauchnyx issledovaniy. – 2022. – Т. 4. – №. 1.
13. Volnenko V. N. Marketingovaya deyatelnost v sisteme upravleniya farmasevticheskim predpriyatiem (na primere seti aptek «Aprel») // Prakticheskiy marketing. – 2022. – №. 4. – S. 10–16.
14. Arutyunova N. V., Petinov R. D. Innovatsionnie podxodi v farmasevticheskom biznese // Vlast, biznes i obshestvo v sifrovoe ekonomike: globalniy i natsionalniy konteksti. – 2022. – S. 180–182.
15. Rana S. et al. Determinants of international marketing strategy for emerging market multinationals // International Journal of Emerging Markets. – 2021. – Т. 16. – №. 2. – S. 154–178.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---